



FANTASTIK NOMINATSIYA TIZIMI VA BADIY OLAMNING LEKSIK-SEMANTIK MAYDONLARI

(Kazuo Ishiguroning "Never let me go" romani va uning
kino talqini misolida)

Mashrabova Buviniso Nurbek qizi,

Andijon davlat pedagogika instituti assistant o'qituvchisi,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

+998(99) 772 17 17

buvinisomashrabova@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1756>

MAQOLA HAQIDA/O'QITATSIYA

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 4

KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

fantastik nominatsiya, leksik-semantik
maydon, qayta semantizatsiya, evfemizm,
distopiya, badiiy olam, intersemiotik
transformatsiya

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Maqolada Kazuo Ishiguroning "Never Let Me Go" ("Meni hech qachon qo'yib yuborma") romanida fantastik badiiy olamni shakllantiruvchi nominativ birliklar va ularning leksik-semantik maydonlari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi umumiste'mol so'zlarining distopik kontekstda qayta semantizatsiyalanishi, muallif yaratgan institutsional va biotibbiy nomlarning ideologik vazifasi hamda ushbu birliklarning Mark Romanek rejissyorligidagi 2010-yilgi kino talqiniga o'tish xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, maqolada nominativ birliklarning badiiy olamni konseptual tashkil etishdagi o'rni, ularning qahramonlar dunyoqarashi va voqelikni idrok etish jarayoniga ta'siri ham yoritiladi. Asardagi "student", "guardian", "carer", "donor", "donation" va "completion" kabi birliklarning umumtil ma'nosi bilan distopik kontekstdagi mazmuni o'rtasidagi tafovut aniqlanib, ularning evfemistik, pragmatik va ideologik xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, nominatsiyalarning institutsional-talimiy, biotibbiy-biopolitik, identitet va klonlash, xotira-makon hamda aksiologik-axloqiy leksik-semantik maydonlarga birlashishi ko'rib chiqiladi. Roman va uning kino talqini qiyosida nominatsiyalarning verbal saqlanishi, vizual konkretlashuvi, semantik qayta ifodalanishi va qisqarishi kabi transformatsiya shakllariga e'tibor qaratiladi. Bunday yondashuv fantastik nominatsiyaning nafaqat til hodisasi, balki badiiy olamning axloqiy va ideologik mazmunini shakllantiruvchi muhim vosita ekanligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 4

KEYWORDS

fantastic nomination, lexical-semantic field,
resemanticization, euphemism, dystopia,
fictional world, intersemiotic transformation

ANNOTATION

This article analyzes the nominative units that contribute to the construction of the fantastic fictional world in Kazuo Ishiguro's novel *Never Let Me Go* and the lexical-semantic fields formed by these units. The aim of the study is to identify the processes of resemanticization of commonly used words within a dystopian context, examine the ideological functions of the institutional and biomedical nominations created by the author, and determine the ways in which these units are transferred into the 2010 film adaptation directed by Mark Romanek. The article also examines the role of nominative units in the conceptual organization of the fictional world and their influence on the characters' worldview and perception of reality. Particular attention is given to the semantic differences between the general meanings of such units as "student," "guardian," "carer," "donor," "donation," and "completion" and their meanings within the dystopian context, with their euphemistic, pragmatic, and ideological characteristics being identified. The study further considers the integration of these nominations into institutional-educational, biomedical-biopolitical, identity and cloning, memory-space, and axiological-ethical lexical-semantic fields. A comparison of the novel and its film adaptation focuses on such forms of transformation as verbal preservation, visual concretization, semantic reinterpretation, and reduction. This approach demonstrates that fantastic nomination functions not only as a linguistic phenomenon but also as an important means of constructing the ethical and ideological dimensions of the fictional world.

Kirish

Ilmiy-fantastik va distopik prozada badiiy olamning ishonarliligi, avvalo, mavjud bo'lmagan yoki real voqelikda boshqacha nomlangan predmet, institut, biologik jarayon va ijtimoiy rollarga berilgan nomlar orqali shakllanadi. Fantastik nominatsiya muallif tasavvuridagi olamni leksik jihatdan tashkil etadi, o'quvchining yangi voqelikni anglash tartibini belgilaydi hamda matnning axloqiy va mafkuraviy yo'nalishini yashirin ravishda boshqaradi.

Kazuo Ishiguroning 2005-yilda chop etilgan "Never Let Me Go" romani futuristik texnika va murakkab neologizmlar ko'pligi bilan emas, aksincha, zamonaviy ingliz tilidagi oddiy so'zlarni yangi institutsional ma'noda ishlatishi bilan ajralib turadi. Asarning 2010-yilda Mark Romanek tomonidan ekranlashtirilgan kino talqini Alex Garland ssenariysi asosida yaratilgan bo'lib, Kathy, Ruth va Tommy hayotini Hailshamdan organ donorligigacha kuzatadi. Film romandagi asosiy nomenklaturani saqlaydi, biroq adabiy matnda izoh, xotira va ichki nutq orqali shakllangan ma'nolarni dialog, kadr, makon, musiqa va jarrohlik tasvirlari orqali qayta ishlab chiqadi.

Adabiyotlar tahlili

Leksik-semantik maydon nazariyasiga ko'ra, til lug'ati mustaqil va aloqasiz birliklar yig'indisi emas, balki bir umumiy konseptual sohani turli tomondan nomlaydigan o'zaro bog'langan tizimdir. Mavzuga oid ilmiy

adabiyotlar tahlili fantastik nominatsiya, leksik-semantik maydon, badiiy olam va intersemiotik transformatsiya tushunchalarining o'zaro bog'liqligi asosida shakllanganini ko'rsatadi. Leksik-semantik maydon nazariyasining rivojlanishida A. Lehrer muhim o'rin tutadi. Olim semantik maydonni muayyan tajriba sohasi bilan bog'liq bo'lgan leksemalarning tizimli majmui sifatida talqin qilib, alohida birlikning mazmunini boshqa birliklar bilan munosabatda o'rganish zarurligini asoslaydi [6, 20–25-b.]. Mazkur yondashuv fantastik va distopik matnlardagi nominativ birliklarni alohida so'zlar sifatida emas, balki yagona konseptual tizimning tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

J. Lyons leksik ma'noning shakllanishida paradigmatic munosabatlarning ahamiyatiga e'tibor qaratib, sinonimiya, antonimiya, giponimiya va boshqa semantik aloqalar orqali birliklar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash mumkinligini ko'rsatadi [7, 58–65-b.]. D.A. Cruse esa leksik ma'noni kontekst, semantik munosabatlar va so'zlarning nutqdagi funksional qo'llanishi bilan bog'laydi [1, 16–22-b.]. Ushbu nazariy qarashlar badiiy matnda umumiste'mol birliklarining kontekst ta'sirida yangi ma'no kasb etishini aniqlash uchun metodologik asos vazifasini bajaradi. Ayniqsa, distopik asarlarda so'zning lug'aviy ma'nosi bilan uning badiiy kontekstdagi ma'nosi o'rtasidagi tafovut muhim semantik va pragmatik natijalarni yuzaga chiqaradi.

Fantastik badiiy olamni tushuntirishda M.L.Ryan tomonidan ishlab chiqilgan “possible worlds” konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvga ko‘ra, badiiy matn o‘quvchini real voqelikdan farqlanuvchi, biroq o‘zining ichki qonuniyatlari va munosabatlar tizimiga ega bo‘lgan matniy olamga olib kiradi [11, 24–31-b.]. Bunday olamni idrok etishda nominatsiyalar muhim vosita hisoblanadi. O‘quvchi avval noma‘lum institut, ijtimoiy rol yoki biologik jarayonning nomi bilan tanishadi, keyinchalik kontekst orqali uning mazmunini bosqichma-bosqich anglaydi. Shu jihatdan fantastik nominatsiya nafaqat predmet yoki hodisani nomlaydi, balki o‘quvchining badiiy voqelikni anglash mexanizmini ham boshqaradi.

Fantastika nazariyasida P.Stockwell ilmiy-fantastik matnlarning poetik qurilishi, begona yoki noodatiy voqelikni lingvistik va narrativ vositalar orqali ishonarli tarzda tashkil etish masalalariga e‘tibor qaratadi [13, 35–42-b.]. D.Suvin esa fantastik va ilmiy-fantastik adabiyotning muhim belgilaridan biri sifatida mavjud voqelikdan farq qiluvchi, biroq muayyan ichki mantiqqa ega bo‘lgan muhitni ko‘rsatadi [14, 63–70-b.]. Mazkur qarashlar Ishiguro romanidagi distopik olamni o‘rganishda muhimdir, chunki asarda fantastik voqelik keskin noodatiy terminlar orqali emas, kundalik va institutsional leksikaning yangi sharoitda ishlatilishi orqali yaratiladi.

K.Ishiguroning “Never Let Me Go” romaniga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarda, avvalo, klonlash, inson identiteti, organ donorligi, bioetika, xotira va jamiyatning insoniylik haqidagi tasavvurlari masalalari yoritilgan. J.H. de Villiers va M.Slabbert asardagi organ transplantatsiyasi tizimini ilmiy-fantastik hamda huquqiy muammolar bilan bog‘lab, insonning shaxsiy avtonomiyasi va huquqiy maqomi masalalarini tahlil qiladi [2, 4–9-b.]. Ularning qarashlari roman olamida klonlarning biologik mavjudligi bilan ularning ijtimoiy-huquqiy maqomi o‘rtasidagi ziddiyatni tushunishga imkon beradi.

M.Semelak roman qahramonlarining mavjudlik muammosini, o‘limga yaqinlashish va inson hayotining chegaralanganligi bilan bog‘liq ekzistensial masalalarni tahlil qiladi [12, 60–65-b.]. Mazkur yondashuv “completion” kabi birliklarning semantik xususiyatlarini chuqurroq tushuntirish imkonini beradi. Oddiy lug‘aviy ma‘noda “completion” biror ishning tugallanishini anglatasa, roman kontekstida u inson hayotining yakunini ifodalovchi evfemistik nominatsiyaga aylanadi. Demak, leksik birlikning kontekstual qayta semantizatsiyasi asarning ekzistensial mazmuni bilan bevosita bog‘liq.

L.Musial roman makoni va pastoral elementlarining badiiy funksiyasini o‘rganib, tashqi jihatdan osoyishta va tabiiy ko‘rinadigan ingliz landshafti bilan qahramonlarning fojeaviy taqdiri o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ko‘rsatadi [8, 90–96-b.]. Bu fikr nominatsiyalarning makon bilan bog‘liq semantik qatlamini o‘rganishda muhimdir. Xususan, Hailsham, Norfolk, Cottages va boat kabi birliklar oddiy geografik yoki predmet nomlari bo‘lib qolmay, xotira, bolalik, yo‘qotish va tugallanmagan kelajak tushunchalarini ifodalovchi ramziy birliklarga aylanadi.

A.Pandeyning Ishiguro ijodidagi evfemizm, neologizm va disfemizmga bag‘ishlangan tadqiqoti roman tilining eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida nomlash strategiyalariga e‘tibor qaratadi. Olim “Never Let Me Go”dagi ayrim nominatsiyalar zo‘ravon va fojeaviy jarayonlarni yumshoq, neytral yoki ma‘muriy shaklda ifodalashini ko‘rsatadi [9, 385–390-b.]. Ushbu yondashuv “donor”, “donation”, “carer” va “completion” birliklarining semantik tabiatini tushuntirish uchun ayniqsa muhim. Mazkur birliklarning lug‘aviy qatlamida yordam, g‘amxo‘rlik va ixtiyoriylik kabi ijobiy semalar mavjud bo‘lsa, roman kontekstida majburiylik, nazorat va biologik resurs sifatida foydalanish semalari ustunlashadi.

Shuningdek, fantastik nominatsiyalarni tahlil qilishda roman qahramonlarining voqelikni aynan institut tomonidan berilgan nomlar orqali qabul qilishi muhim masala hisoblanadi. “Student”, “guardian”, “carer”, “donor” va “completion” kabi birliklar qahramonlarning hayot bosqichlarini belgilab beradi. Shu sababli nominatsiya oddiy nomlash vositasidan tashqari, ijtimoiy nazorat mexanizmiga ham aylanadi. Masalan, “student” kelajak, ta‘lim va rivojlanish imkoniyatlarini anglatadigan ijobiy birlik bo‘lsa-da, roman kontekstida uning kelajagi oldindan belgilangan klonlarga nisbatan ishlatilishi semantik paradoksni yuzaga keltiradi. “Guardian” esa himoya va vasiylik semalariga ega

bo‘lishiga qaramay, amalda nazorat va tizimga moslashtirish funksiyasini bajaradi.

Roman tilidagi nominatsiyalarni tizimli o‘rganishda “carer – donor – donation – completion” ketma-ketligi alohida e‘tibor talab qiladi. Ushbu birliklar klonlarning institutsional hayot yo‘lini ixcham tarzda nomlaydi. “Carer” g‘amxo‘rlik qiluvchi shaxsni bildirsa, “donor” tanasidan organ olinadigan shaxsni, “donation” esa mazkur jarayonni anglatadi. “Completion” esa ushbu jarayonning yakuniy bosqichini ifodalaydi. Shunday qilib, oddiy kasbiy va tibbiy terminlar tizimi inson hayotining tugashini ma‘muriy jarayon sifatida ko‘rsatadigan yopiq semantik tizimni hosil qiladi.

Roman tadqiqotlarida identitet va klonlash masalasi ham muhim yo‘nalishlardan biridir. “Clone”, “possible”, “model”, “original”, “normal people” kabi birliklar qahramonlarning o‘zligini anglash jarayonini belgilaydi. Ayniqsa, “possible” nominatsiyasi ehtimollik va noaniqlik semalarini birlashtirib, qahramonlarning o‘z biologik kelib chiqishini izlash jarayonidagi beqarorlikni ifodalaydi. “Normal people” va klonlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik esa insoniylikning faqat biologik emas, balki ijtimoiy va diskursiv kategoriya sifatida ham shakllanishini ko‘rsatadi.

R.Jakobsonning tarjima nazariyasida ilgari surilgan intersemiotik tarjima tushunchasi badiiy asarning ekranlashtirilishini lingvistik va semiotik jihatdan o‘rganish uchun nazariy asos beradi. Jakobson verbal belgilarni boshqa, ya‘ni noverbal belgilar tizimi orqali talqin qilishni intersemiotik tarjima sifatida izohlaydi [5, 233–239-b.]. L. Hutcheon esa adaptatsiyani faqat tayyor matnning boshqa shaklga ko‘chirilishi sifatida emas, balki qayta yaratish va qabul qilish jarayonlarini birlashtiruvchi murakkab hodisa sifatida baholaydi [3, 7–15-b.]. Shu nuqtayi nazardan, “Never Let Me Go” filmini roman nominatsiyalarining oddiy takrori emas, balki verbal, vizual va audial belgilar o‘rtasidagi intersemiotik qayta tashkil etilish sifatida baholash mumkin.

Mavjud adabiyotlar fantastik va distopik matnlarda nominatsiyaning semantik, pragmatik, kognitiv hamda ideologik imkoniyatlarini tushuntirish uchun yetarlicha nazariy asos yaratadi. Biroq ushbu manbalarda “Never Let Me Go” romanidagi nominativ birliklarni yaxlit leksik-semantik maydonlar tizimi sifatida tasniflash, ularning qayta semantizatsiya mexanizmlarini bir tizimda ko‘rsatish va roman hamda kino talqinidagi o‘zgarishlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish masalasi to‘liq birlashtirilmagan. Shu sababli mazkur yo‘nalishda institutsional-ta‘limiy, biotibbiy-biopolitik, identitet va klonlash, xotira-makon hamda aksiologik-axloqiy maydonlarni kompleks tarzda o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot materiali sifatida Kazuo Ishiguroning “Never Let Me Go” romani (2005) va Mark Romanek rejissyorligidagi shu nomli film (2010) olindi. Roman matni bilan film dialoglari hamda ekranda aks etgan vizual-audial birliklar tanlandi.

Tahlilda 5 bosqichli metodik model qo‘llandi: 1) birliklarning lug‘aviy va kontekstual ma‘nosi qiyoslanadi, 2) komponent tahlili yordamida semantik belgilar ajratiladi, 3) birliklar umumiy referensial-konseptual sohasiga ko‘ra leksik-semantik maydonlarga birlashtiriladi, 4) ularning matndagi pragmatik va ideologik vazifasi aniqlanadi, 5) roman nominatsiyalarining filmda verbal saqlanishi, qayta ifodalanishi, noverbal berilishi yoki qisqarishi tahlil qilinadi.

Natijalar

“Never Let Me Go”dagi fantastik olam keskin yangi fonetik shakllarga ega ko‘plab neologizmlar, semantik jihatdan tanish so‘zlarning institutsional qayta nomlanishi orqali quriladi. Bu usul asarning distopik ta‘sirini kuchaytiradi: g‘ayriinsoniy tizim begona va oshkora dahshatli terminlarda emas, kundalik hayotga xos xotirjam leksika bilan ifodalanadi. Masalan, “donation” odatda ixtiyoriy xayriya yoki tibbiy yordamni anglatadi; romanda esa klon tanasidan majburiy organ olish jarayonini bildiradi. “Completion” odatda bir ishning muvaffaqiyatli yakunini bildirsa, klonning operatsiya natijasida vafot etishini nomlaydi. “Carer” g‘amxo‘r shaxs ma‘nosini saqlasada, u kelajak donorlarini boshqa donorlarning og‘rig‘iga moslashtiruvchi birlikdir.

Nominatsiyalar tizimi qahramonlarning voqelikni qanday idrok etishini ham chegaralaydi. Ketu va uning do‘stlari o‘z holatini “majburiy qurbonlik”, “organlar uchun o‘stirilgan klon” yoki “davlat zo‘ravonligi” kabi nomlar bilan ifodalamaydi; ular institut bergan “student”, “carer”, “donor” va “completion” birliklaridan foydalanadi.

1-jadval

Fantastik nominatsiyalarning leksik-semantik maydonlari

№	Maydon	Soni	Asosiy birliklar
1	Institutsional-ta‘limiy	9	Hailsham, students, guardians, Gallery, Madame, Exchanges, Sales, Cottages, recovery centre
2	Biotibbiy-biopolitik	9	carer, donor, donation, complete, completion, operation, selection, medical breakthrough, vital organs
3	Identitet va klonlash	7	clone, possible, model, original, copy, normal people, all but human
4	Xotira va makon	5	Norfolk, lost corner, boat, artwork, collection
5	Aksiologik-axloqiy	5	deferral, soul, special, privileged, love

Institutsional-ta'limiy maydon romandagi axloqiy paradoksning tashqi qobig'ini yaratadi. *"Hailsham"* atqli nomi odatiy ingliz internat maktabiga o'xshash xavfsiz va pastoral makonni bildiradi. Undagi bolalar *"students"*, katta yoshdagilar *"guardians"* deb nomlanadi. *"Student"* ta'lim oluvchi, rivojlanish va kelajak imkoniyatiga ega shaxsni anglatadi; romanda esa kelajagi oldindan belgilangan klonlarga nisbatan ishlatiladi. *"Guardian"* himoya va mas'uliyat semalariga ega, biroq Hailsham kattalari bolalarni tizimdan himoya qilmaydi; ular faqat tizimning nisbatan *"insonparvar"* shaklini boshqaradi. Shu sababli mazkur nominatsiyalar semantik inversiya hosil qiladi: himoya ma'nosi nazoratga, ta'lim ma'nosi esa donorlikka ruhiy tayyorlash jarayoniga aylanadi.

"Gallery", *"Exchanges"* va *"Sales"* nomlari bolalarning ijodiy faoliyatini odatiy maktab amaliyoti sifatida ko'rsatadi. Biroq *Gallery* uchun tanlab olingan san'at asarlari tashqi jamiyatga klonlarning "ruhi" borligini isbotlash vazifasini bajaradi. *Exchanges* va *"Sales"* esa bolalarga predmetlarning almashinuv va iste'mol qiymatini o'rgatadi, lekin ularning o'z tanalari kelajakda insonlar uchun almashinuvchi biologik resurs bo'lishi bilan fojeaviy parallel hosil qiladi. *"Cottages"* nomi mustaqil yoshlik makonini bildirgandek tuyuladi, amalda esa donorlikdan oldingi

qisqa va nazoratlangan kutish bosqichidir. Demak, ta'limiy makon nomlari mustaqillik illyuziyasini yaratib, taqdirning o'zgarmasligini yashiradi.

Biotibbiy-biopolitik maydonning markazida *"carer – donor – donation – completion"* zanjiri turadi. Ushbu zanjir klon hayotining institutsional biografiyasini ixcham shaklda belgilaydi. Dastlab shaxs *carer* bo'lib, boshqa donorlarni parvarishlaydi; keyin o'zi *donor* maqomiga o'tadi; ketma-ket *donations* jarayonidan so'ng *completes*. *"Complete"* fe'lining subyektivi inson bo'lsa ham, u *"die"* fe'lining hissiy va etik yukidan xoli. O'lim tugallangan vazifa kabi ifodalanaadi. Bu nominatsiya klon hayotini individual mavjudlik emas, ma'muriy rejaning bajarilishi sifatida ko'rsatadi. *"Medical breakthrough"* esa tizimning tashqi jamiyat uchun ijobiy nomidir: inson umrini uzaytirgan ilmiy yutuq klonlar hayotining qisqartirilishi evaziga amalga oshadi.

Kontekstual jihatdan *"donation"* va *"carer"* birliklari ikki tomonlama semantik tuzilishga ega. Ularning lug'aviy qatlamida ixtiyoriylik, yordam va g'amxo'rlik semalari mavjud; asar kontekstida esa majburiylik, nazorat va tananing resursga aylanishi ustun. Aynan shu qarama-qarshilik distopik ironiyani yuzaga keltiradi.

2-jadval

Asosiy nominatsiyalarning qayta semantizatsiyasi

Birlik	Umumtil ma'nosi	Roman kontekstidagi ma'nosi	Pragmatik-ideologik vazifasi
carer	g'amxo'rlik qiluvchi shaxs	Donorlarni operatsiya va ruhiy tushkunlik jarayonida kuzatuvchi klon	G'amxo'rlik orqali tizimga moslashtirish
donor	ixtiyoriy ravishda organ beruvchi	Tanasidan organ olish uchun yaratilgan klon	Majburiylikni ixtiyoriy yordam sifatida ko'rsatish
donation	xayriya yoki ixtiyoriy organ berish	Rejalashtirilgan majburiy operatsiya	Zo'ravon tibbiy amaliyotni neytrallashtirish
complete / completion	tugatmoq / yakun	Organ olish jarayonida o'lish	O'limni ma'muriy natijaga aylantirish
student	ta'lim oluvchi va kelajakka tayyorlanuvchi	Donorlikka tarbiyalanayotgan klon bola	Kelajaksizlikni ta'limiy kelajak bilan niqoblash
guardian	himoya qiluvchi, vasiy	Hailsham tarbiyachisi va nazoratchisi	Nazoratni himoya sifatida ifodalash
possible	ehtimoliy shaxs yoki variant	Klon uchun genetik model bo'lishi mumkin deb taxmin qilingan inson	Identitet izlanishini noaniq nomen bilan belgilash
deferral	kechiktirish	Sevishgan donorlar uchun mavjud deb o'ylangan soxta muddat	Umidni ma'muriy termin shaklida tashkil etish

Identitet va klonlash maydonida *"clone"* so'zi markaziy referent bo'lsa-da, qahramonlar kundalik nutqida bu birlik nisbatan kam va kech qo'llanadi. Uning o'rmini *"students"*, *"carers"* va *"donors"* kabi funksional nomlar egallaydi. *"Possible"*, *"model"* va *"original"* birliklari qahramonlarning biologik manbasini izlash jarayonida paydo bo'ladi. *"Possible"* ayniqsa muhim: u genetik originalni aniq shaxs sifatida emas, faqat ehtimoliy o'xshashlik sifatida nomlaydi. Bu so'z qahramonning o'zlik haqidagi bilimini doimiy noaniqlikda ushlab turadi. *"Normal people"* va *"all but human"* oppozitsiyasi esa insoniylikning biologik emas, siyosiy va diskursiv kategoriya ekanini ochadi. Klonlar his qiladi, sevadi va xotirlaydi, biroq jamiyat ularni "deyarli inson" deb nomlash orqali huquqiy hamda axloqiy chegaradan tashqarida qoldiradi.

Xotira va makon maydoni romanning hissiy poetikasini tashkil etadi. *"Norfolk"* bolalar tasavvurida yo'qolgan narsalar topiladigan *"lost corner"*ga aylanadi. Bu nominatsiya geografik toponimdan ramziy makonga ko'chadi: yo'qotilgan kassetani, yo'qolgan bolalikni, amalga oshmagan muhabbatni va tugayotgan hayotni o'zida jamlaydi. *"Boat"* esa yaroqsiz va quruqlikda qolgan predmet sifatida Ket, Ruz va Tommining o'z kelajagidan uzilgan holatini aks ettiradi. *"Artwork"* va *"collection"* birliklari bolalarning ijodini nomlagan bo'lsa-da, keyinchalik ular ruh va insoniylikni *"dalillash"* vositasi bo'lganini anglatadi. Shu tariqa predmet va makon nomlari syujetdagi oddiy referentdan xotira, yo'qotish va identitet ramziga aylanadi.

Aksiologik-axloqiy maydon *"special"*, *"privileged"*, *"soul"*, *"love"* va *"deferral"* birliklarida mujassam. Hailsham o'quvchilari *"special"* va boshqa klonlarga nisbatan *"privileged"* deb tarbiyalanadi. Bu ijobiy baholovchi so'zlar ularga insoniy qadr berayotgandek ko'rinsa-da, ularning tizimdan ozod bo'lishini anglatmaydi. *"Soul"* san'at orqali

isbotlanishi kerak bo'lgan kategoriya sifatida paydo bo'ladi; ya'ni klonning insoniyligi tabiiy haqiqat emas, tashqi jamiyatga ko'rsatilishi lozim bo'lgan dalilga aylantiriladi. *"Love"* va *"deferral"* o'rtasidagi bog'lanish esa muhabbatni taqdimni kechiktirishi mumkin bo'lgan istisno sifatida ko'rsatadi. Ammo deferralning mavjud emasligi nomning referentsiz, biroq kuchli pragmatik ta'sirga ega ekanini ko'rsatadi: u umid yaratadi, xatti-harakatni boshqaradi va oxir-oqibat tizimning mutlaq yopiq ekanini ochib beradi.

Muhokama

Kino talqini romandagi asosiy institutsional va biotibbiy nomlarni saqlashi bilan badiiy olamning qoidalarini tez va aniq belgilaydi. Film Kathy nutqidagi *"carer"*, *"donors"* va *"donation"* birliklari bilan boshlanadi; Hailsham, Cottages, students, guardian va Gallery nomlari ham dialoglarda qo'llanadi. Shu orqali tomoshabin notanish tizimga romandagi kabi ichki terminologiya orqali kiradi. Biroq film o'quvchiga beriladigan ma'lumotni tezlashtiradi: boshlang'ich titrda 1952-yildagi *"medical breakthrough"* va inson umrining uzayishi ochiq aytiladi. Romandagi asta-sekinlik qisman eksplisit tarixiy ramkaga aylantiriladi.

Filmning vizual imkoniyatlari ayrim nominatsiyalarning ma'nosini replikasiz ham ochadi. *"Hailsham"* nomi bino, yashil maydon, tartibli kiyim va devorlar orqali intizomli pastoral muhitga aylanadi. *"Gallery"* san'at asarlarini saralash sahnasi bilan konkretlashadi. *"Donation"* va *"completion"* so'zlari operatsiya xonasi, chandiqlar, kasal tana hamda monitor tasviri bilan birlashganda evfemistik pardani qisman yo'qotadi: tomoshabin neytral so'z ostidagi jismoniy zo'ravonlikni bevosita ko'radi. *"Boat"* vizual ramz sifatida kuchayadi, lekin *"Norfolk"*ning yo'qolgan narsalar makoni haqidagi uzun xotiraviy semantikasi qisqaradi. Demak, film ayrim nomlarni verbal saqlaydi, ayrimlarini esa makon va obrazga aylantiradi.

Asosiy nominatsiyalarning roman va film o'rtasidagi transformatsiyasi

Nominatsiya	Transformatsiya turi	Semantik natija
Hailsham	Verbal saqlanish + vizuallashtirish	Maktab nomi dialogda qoladi; bino, maydon va uniforma orqali institutsional muhit yaratiladi
students / guardians	Verbal saqlanish	Ta'lim va himoya konnotatsiyasi saqlanib, nazorat vizual intizom bilan kuchayadi
carer / donor / donation	Verbal saqlanish + vizual konkretlashuv	Neytral terminlar kasalxona va operatsiya sahnalari bilan zo'ravon referentga bog'lanadi
complete / completion	Verbal saqlanish	O'lim evfemizmi saqlanadi; jarrohlik tasviri uning yashirin ma'nosini ochadi
Gallery / artwork / soul	Verbal saqlanish + dramatik eksplikatsiya	San'atning klonlar insoniyatini isbotlash vazifasi final dialogda ochiq bayon qilinadi
deferral	Verbal saqlanish va syujet markazlashuvi	Soxta umid filmda ixcham, lekin markaziy motivga aylanadi
possible / model / original	Qisman saqlanish	Genetik original izlash motivi saqlanadi, lekin romandagi tafsilotlar soddalashtiriladi
Norfolk / lost corner	Qisqarish	Toponimning bolalik mifologiyasi sezilarli darajada kamayadi
boat	Vizual kuchaytirish	Yaroqsiz qayiq filmda tanazzul va tugagan kelajakning kuchli vizual ramziga aylanadi
Exchanges / Sales / tokens	Qisman vizuallashtirish va qisqartirish	Maktabdagi predmet almashinuvi ko'rsatiladi, lekin romandagi iqtisodiy-ramziy qatlam ixchamlashadi

Tahlil natijasida tanlanma korpusdagi 35 nominatsiya besh leksik-semantik maydonga ajratildi. Institutsional-ta'limiy va biotibbiy-biopolitik maydonlar har biri 9 tadan birlik bilan yetakchi bo'lib, jami tanlanmaning 51,4 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich asarning fantastik olami, avvalo, texnik ixtirolar emas, inson hayotini boshqaruvchi institut va tibbiy nomenklatura orqali yaratilganini ko'rsatadi. Identitet va klonlash maydoni 7 birlikdan, xotira-makon hamda aksiologik-axloqiy maydonlar 5 tadan birlikdan iborat bo'ldi.

Kino talqini bo'yicha kodlashda 22 birlik, ya'ni 62,9 foiz asosiy verbal shaklda saqlangani aniqlandi. 6 birlik semantik qayta ifoda yoki eksplisit izoh orqali berilgan; 4 birlikning asosiy funksiyasi vizual yoki audial kanalga ko'chgan; 3 birlik esa sezilarli qisqartirish yoki tushirishga uchragan. Verbal saqlanishning yuqori ulushi "Never Let Me Go" badiiy olamining ataylab ixcham va takrorlanuvchi nomenklaturaga tayanishi bilan bog'liq. Film "carer", "donor", "donation", "completion", "Hailsham" va "deferral"ni yo'qotsa, syujetning asosiy qoidalari va axloqiy ironiyasi zaiflashgan bo'lar edi.

Xulosa

Kazuo Ishiguroning "Never Let Me Go" romanida fantastik badiiy olam yangi texnik so'zlarning ko'pligi bilan emas, umumiste'mol va institutsional birliklarning izchil qayta semantizatsiyasi orqali yaratiladi. "Students", "guardians", "carer", "donor", "donation", "completion", "possible" va "deferral" kabi nominatsiyalar bir vaqtning o'zida referentni nomlaydi, axloqiy zo'ravonlikni yumshatadi va qahramonlarning voqelik haqidagi bilimni chegaralaydi. Shu bois fantastik nominatsiya nominativ, kognitiv, pragmatik va ideologik vazifalarning yaxlit tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Tanlanma tahlil badiiy olamning institutsional-ta'limiy, biotibbiy-biopolitik, identitet va klonlash, xotira va makon, aksiologik-axloqiy maydonlardan tashkil topganini ko'rsatdi. Ushbu maydonlar o'zaro birikib, klonlarning tug'ilishidan donorlik va "completion" gacha bo'lgan hayot modelini nomlaydi. Mark Romanekning kino talqini yadro nominatsiyalarning aksariyatini verbal saqlaydi, ayni paytda ularning bir qismini tasvir, makon, musiqa va jarrohlik sahnalari orqali intersemiotik jihatdan aniqlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Cruse, D. A. (1986). *Lexical Semantics*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. de Villiers, J. H., & Slabbert, M. (2011). Never Let Me Go: Science Fiction and Legal Reality. *Literator*, 32(3), Article 211. <https://doi.org/10.4102/lit.v32i3.211>
3. Hutcheon, L. (2013). *A Theory of Adaptation* (2nd ed.). London: Routledge.
4. Ishiguro, K. (2005). *Never Let Me Go*. London: Faber and Faber.
5. Jakobson, R. (1959). On Linguistic Aspects of Translation. In R. A. Brower (Ed.), *On Translation* (pp. 232–239). Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Lehrer, A. (1974). *Semantic Fields and Lexical Structure*. Amsterdam: North-Holland.
7. Lyons, J. (1977). *Semantics* (Vols. 1–2). Cambridge: Cambridge University Press.
8. Musial, L. (2018). A Landscape Lullaby? The Function of (Post-)Pastoral Elements in Kazuo Ishiguro's *Never Let Me Go*. *Satura*, 1, 87–101. <https://doi.org/10.17879/satura-2018-3146>
9. Pandey, A. (2011). 'Cloning Words': Euphemism, Neologism and Dysphemism as Literary Devices in Kazuo Ishiguro's *Never Let Me Go*.

- Changing English, 18(4), 383–396. <https://doi.org/10.1080/1358684X.2011.630188>
10. Romanek, M. (Director). (2010). *Never Let Me Go* [Film]. DNA Films; Film4; Fox Searchlight Pictures.
11. Ryan, M.-L. (1991). *Possible Worlds, Artificial Intelligence, and Narrative Theory*. Bloomington: Indiana University Press.
12. Šemelák, M. (2018). The Suffering of Existence in Kazuo Ishiguro's *Never Let Me Go*. *Ars Aeterna*, 10(2), 59–68. <https://doi.org/10.1515/aa-2018-0008>
13. Stockwell, P. (2000). *The Poetics of Science Fiction*. Harlow: Longman.
14. Suvin, D. (1979). *Metamorphoses of Science Fiction: On the Poetics and History of a Literary Genre*. New Haven: Yale University Press.
15. Penguin Random House. (n.d.). *Never Let Me Go* by Kazuo Ishiguro: Book description and author interview. <https://www.penguinrandomhouse.com/books/85609/never-let-me-go-by-kazuo-ishiguro-with-a-new-introduction/>
16. Independent Cinema Office. (2010). *Never Let Me Go*. <https://www.independentcinemaoffice.org.uk/films/11184/>